



TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA JANRINING ESTETIK QIYMATI

Abduqayumova Aqida Abdurashid qizi

Guliston davlat universiteti Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

karshiboyeva89@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'atda manzara janrining estetik qiymati va uning o'quvchilar va san'at ixlosmandlari uchun ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, manzara janridagi, tabiatga nisbatan o'ziga xos estetik zavqni beruvchi go'zallikni aks etishi, manzara janrining rivojlanishi, uning san'atdagi o'rni va zamonaviy san'atdagi ifodalanishi xususida fikrlar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: manzara, estetika, go'zallik, tabiat, ijodkorlik, kompozitsiya, tasviriy san'at, rang, janr.

Tarixiy taraqqiyot davomida tasviriy san'atning bir necha tur va janrlari shakllandi. Bular: arxitektura, rangtasvir, haykaltaroshlik, amaliy san'at va grafikadir. Ushbu san'at turlari o'zining ishlanish uslublariga ko'ra turlicha bo'lib, kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Tabiatga chiqib manzarani tasvirlash, tasviriy san'at janrlaridan biri bo'lib, u tabiatning go'zalligini, uning rang-barangligini va o'zgaruvchanligini aks ettiradi.

Bu janr, asosan, tabiat manzaralarini, landshaftlarni va tabiiy muhitlarni tasvirlashga qaratilgan. Rassomlar manzarani yaratishda tabiatdagi tabiiy ranglar koloriti, shakllar orqali tabiatning go'zalligini tasvirleydi. Ular har bir detalni, masalan, quyoshning chiqishi yoki botishi, bulutlarning harakati, daraxtlarning shoxlari va gullarning rang-barangligi kabi go'zalliklarini o'z asarlarida tasvirleydilar. Bu esa tomoshabinning ko'z o'ngida tabiatning jozibadorligini namoyon etadi.

Ushbu janr, san'at asarlarini tomoshabinlarga taqdim etishda o'ziga xos estetik hissiyotlarni yaratadi. Manzara asarlari ko'pincha tomoshabinlarda tinchlik, xotirjamlik va go'zallik his-tuyg'ularini uyg'otadi. Tabiatning har bir manzarasi tomoshabinda o'ziga xos estetik his tuyg'ularni, fikrlarni va xotiralarni keltirib chiqaradi.

Masalan, rassom bahorning iliq kunlari, gullar bilan to'lgan bir manzarani tasvirlar ekan, tomoshabinni hayotning yangilanishi va umid kabi tuyg'ular bilan to'ldirishi mumkin, qishki manzarani ifodalashdagi sokin ranglar jilosi esa sokinlik va xotirjamlikni ko'rsatib beradi. Tasviriy san'atda estetik tushunchalar go'zallik, estetik tajriba, tasviriylik va simvolizm kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Go'zallikning har davr va madaniyatda o'ziga xos talqinlari bo'lgan va u kompozitsiyaning asosiy tushunchasi bo'lib, insonlarning estetik qadriyatlarini belgilab, tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Estetik tajriba orqali rassomlar san'at asarlarini emotsional his qilishadi va o'ziga xos tuyg'u va kechinmalar orqali ijodiy ishlarini yaratadilar. Tasviriylik va simvolizm, tasviriy san'atning o'ziga xos estetik tuyg'ulari va san'at asarlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi [1].



Rassomlar, o'z asarlarida, tabiiy ranglar va teksturalar yordamida tomoshabinlarni tabiatni aslidagiday ko'rishga ularni tabiat bilan bog'lab, uning go'zalliklarini bevosita ko'rishga undaydilar.

Ularning tasvirlari orqali, tomoshabinlar o'zlarini tabiatning bir qismi sifatida his qilishadi va uning go'zalliklarini chuqurroq qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Demak, manzara janri nafaqat estetik qabul qilishni, balki inson va tabiat o'rtasidagi aloqani mustahkamlashni ham ta'minlaydi. Estetik jihatdan manzara janri insonning his-tuyg'ularini shakllantirib, tabiatdagi ranglarning kombinatsiyasi orqali ko'zlarni jalb qilib, tomoshabinda ijodiy ilhom uyg'otadi. Bundan tashqari insonning tabiat bilan munosabatini chuqurlashtirib, inson manzaralarni ko'rganida, u tabiatni nafaqat kuzatadi, balki uni his etib, uning og'ushiga sho'ng'iydi.

Manzara tarixiy, maishiy asarlarda xam vosita - fon sifatida qo'llaniladi. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun ko'plab rassomlar tabiat olamining eng nozik, tipik xolatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi va o'z kompozitsiyalarida aks ettiradi.

Kompozitsiya -bu ilm, unda tanlangan o'lchamli qog'oz yoki xolst (va boshqa ashyolar) yuzasida detallarni shunday joylashtirish kerakki, ular yaxlit bir butunlikni tashkil qilishi kerak. Kompozitsiyada ideal holatga kelganida esa, unga na biror detal, chiziq qo'shimcha kiritishning, yoki biror ortiqcha detalni o'chirib tashlashning iloji bo'lmaydi. Yaxshi topilgan kompozitsiya yechimi asarning asosi hisoblanadi.

Ushbu bilim va ko'nikmalar, kompozitsiya qonunlari, asrlar mobaynida o'zgarmasdan kelmoqda va bu kompozitsiyaning poydevoridir. Kompozitsiyaning badiiy yechimi muvaffaqiyatli topilgan taqdirda, tomoshabin asardagi ba'zi kamchiliklarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin.

Demak, asar kompozitsiyasining badiiy yechimining ahamiyati beqiyosdir [2]. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq davlatlari hududida va Krit orollarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar misolida ko'rish mumkin. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik san'atida VI asrda paydo bo'lgan. Yevropa san'atida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U ayniqsa, golland rangtasvir san'atida keng tarqaldi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, to XVII asrgacha tabiat manzarasi ko'rinishlari faqat mavzuli suvrat yoki portretlar uchun fon vazifasini o'tagan.

Manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan bo'lsa-da, unda ba'zan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq manzara kompozitsiyasida inson tasviri, shuningdek, kichik voqeaviy sahnalar hal qiluvchi rol o'ynamaydi, balki manzarani to'ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi [3].

Ushbu janrda rassom g'o'zal tabiatning sir-asrorlari, rang uyg'unliklari qolaversa, o'zining ichki kechinmalari, tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiatni tasvirlaydi.

Manzara janridagi ishlangan go'zal asarlar inson qalbida muhabbat va go'zallik kabi g'o'zal fazilatlarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Yuqorida ushbu janr tarixiy va



maishiy mavzudagi asarlarda ham ko'plab uchrashi to'g'risida fikr yuritdik. Zero, ko'plab ijodkorlar asarlar yaratilishida fon sifatida tabiatdan etyud, eskizlar yozadilar.

Yurtimizda muntazam tashkil etilayotgan badiiy ko'rgazmalar tasviriy san'atimizga albatta ijobiy ta'sir etmoqda. Rassomlarda tabiatga nisbatan yanada yangicha nazar, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'lib, ushbu janrda turli xil zamonaviy uslublarda ham ijod qilmoqdalar.

Jumladan, XX asrning 50-yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboyev karvonboshi bo'ldi. Uning «O'zbekistonda mart», «Jonajon o'lka», «Mening qo'shig'im» va ayniqsa, «Tog' qishlog'i» kartinasida manzaralarining barchasi quyoshning kechki nurlariga chulg'angan holda, ko'kish rangda tasvirlangan va shakldagi aniqlik, real rang yo'qolib borgan. Yosh rassomlar ijodiy izlanishlar jarayonida perspektiva qoidalariga amal qilish bilan birga tasviriy san'at asarlarini kuzatishi hamda o'zi chizgan asarlarini tahlil qilib borishi kerak bo'ladi. N.Kashinaning «Tog'da bahor», Z.

Inog'omovning «Arpa o'rimi», «Choyga», R.Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug'bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi [4]. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, xar bir ijodkor o'z davrida manzara janrida o'zini sinab ko'radi. Tabiatni vujudi bilan xis etib tasvirlagan rassomnigina asari tomoshabinni o'ziga jalb eta oladi. Ushbu janridagi asarlar inson qalbi uchun ma'naviy ozuqa beradi ruhlantiradi, shodlik va quvonch bag'ishlaydi. Ko'plab ustoz rassomlar tomonidan bizga go'zal manzara asarlarini yaratib meros qoldirilgandir.

Ularning san'at asarlarini kuzatib, mazmunini, kompozitsiya tuzilishini ularning ish tajribalarini bugungi kunda yosh ijodkorlarga namuna sifatida qo'llab, o'rgatib, ularni tahlil etib, dars jarayonlarida ulardan ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARNING INSONIYAT MADANIYATIGA TA'SIRI." *Научный Фокус* 2.19 (2024): 356-358.
2. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 7.12 (2024): 34-37.
3. E.Xaitov "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. Cho'lpon. Toshkent-2019.
4. A.Amanullayev. "Rangtasvir" Qo'llanma. Namangan-2005.